TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.10/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

OKILOV ZAFAR OMON O‘G‘LI

METALLURGIYA CHIQINDILARI QO‘SHILGAN KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN BETON

05.09.05 - “Qurilish materiallari va buyumlari”

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

UO‘K: 624.21.055:624.042.7

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Okilov Zafar Omon o‘g‘li
Metallurgiya chiqindilari qo‘shilgan kompleks modifikatsiyalangan beton 3

Окилов Зафар Омон угли
Комплексно модифицированный бетон с добавлением металлургических отходов 23

Okilov Zafar Omon ugli
Complex-modified concrete with the addition of metallurgical waste 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 49

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.10/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

OKILOV ZAFAR OMON O‘G‘LI

METALLURGIYA CHIQINDILARI QO‘SHILGAN KOMPLEKS MODIFIKATSIYALANGAN BETON

05.09.05 - “Qurilish materiallari va buyumlari”

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T5167 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Shaumarov Said Sanatovich** texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Hasanov Baxriddin Baratovich** texnika fanlari doktori, professor
	Turgunbayev Urinbek Jamalovich texnika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.10/2025.27.12.T.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «28» noyabr soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (99871) 293-57-54, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (395-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (99871) 293-57-54, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «12» noyabrda tarqatildi.
(2026-yil «12» noyabrdagi 46-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.I. Adilxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

U.Z. Shermuxamedov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

A.A. Ishanxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichi bino va inshootlar, avtomobil yo‘llari va piyodalar yo‘laklari qurilishida qo‘llaniladigan betonlarga yuqori talablar qo‘yilishi eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda betonning zichligi, mustahkamligi, sovuqbardoshliligi va suv o‘tkazmasligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib, bunda Germaniyada “ekologik beton”, Xitoyda “kam uglerodli beton” (low-carbon concrete), AQShda uchuvchi kul va silikat changi (silica fume) qo‘llanilgan yuqori samarali betonlarni superplastifikatorlar, mikroto‘ldirgichlar va faol mineral qo‘shimchalar kiritish orqali amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, sanoat chiqindilaridan foydalangan holda strukturasi barqarorlashtirilgan, sement sarfi kamaytirilgan, kompleks modifikatsiyalangan beton tarkiblarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda qurilish sanoatida energiya sarfi kam bo‘lgan kompozit bog‘lovchilarni ishlab chiqarish, atmosferaga CO_2 emissiyasini kamaytirish va turli funksional xossalarga ega sement kompozitlarini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada betonning strukturasini mikro- va makrodarajada maqsadli boshqarish, ya’ni ultradispers faol mineral qo‘shimchalar hamda polikarboksilat superplastifikatorlarni kompleks qo‘llash orqali suv-sement nisbatini pasaytirish, qattiq fazalarning zich joylashuvini ta’minlovchi optimal granulometrik tarkibni shakllantirish va kapillyar g‘ovaklikni kamaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, putssolan reaksiyasi hisobiga portlanditni qo‘shimcha past asosli kalsiy gidrosilikatlariga (C-S-H) aylantirish, betonning eng zaif bo‘g‘ini hisoblangan “to‘ldiruvchi – sement toshi” kontakt zonasini zichlashtirish, xlorid va sulfat ionlarining diffuziyasini cheklash hamda tajribalarni matematik rejalashtirish asosida sement sarfi kamaytirilgan, yuqori mustahkamlik, suv o‘tkazmaslik, sovuqbardoshlilik va uzoqqa chidamlilikka ega kompleks modifikatsiyalangan beton tarkiblarini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, portlandsement klinkerini tejash va sanoat chiqindilaridan foydalanish masalalarini birlashtirgan “ekologik beton” konsepsiyasi doirasida metallurgiya chiqindilarini mikroto‘ldirgich va faol mineral qo‘shimcha sifatida qo‘llash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish materiallari sohasini rivojlantirish, tabiiy xomashyolarni iqtisod qilish, mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan keng foydalanishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga ko‘paytirish vazifasi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-yanvardagi “Suv havzalarida noruda materiallarni qazib olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonida “...daryo o‘zanlari, sohil bo‘yi mintaqalari va suvni muhofaza qilish zonalaridan qum-shag‘al materiallari qazib olishni

taqiqlash...”[1] hamda muddatsiz moratoriy joriy etilishi belgilanganligi tabiiy qum o‘rnini bosuvchi muqobil materiallardan foydalanish zaruratini yanada oshirdi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumini resurstejamkor to‘ldiruvchi, “O‘zmetkombinat” AJ ishlab chiqarish jarayonidan olingan mikrokremnezem chiqindisini esa energiyatejamkor faol mineral qo‘shimcha sifatida qo‘llab, yuqori ekspluatatsion xossalarga ega kompleks modifikatsiyalangan beton tarkibini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4198-son, 2019-yil 23-maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-son qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni hamda qurilish sanoati bilan bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Materiallar va energiya sarfini kamaytirib, zaruriy fizik-mexanik xossalar majmuasiga ega bo‘lgan yuqori mustahkam betonlarni ishlab chiqishda uning strukturasini mineral bog‘lovchilar va kimyoviy qo‘shimchalar bilan modifikatsiyalash bo‘yicha tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday qo‘shimchalarni ko‘p komponentli yuqori sifatli betonlarda qo‘llash asoslarini rivojlantirishga taniqli xorijiy olimlar V.I. Solomatov, G.I. Gorchakov, Yu.M. Bajenov, L.I. Dvorkin, P.G. Komoxov, A.V. Voljenskiy, Yu.M. Butt, B.V. Gusev, S.M. Mchedlov-Petrosyan, V.G. Batrakov, A.G. Komar, V.I. Kalashnikov, A.Ye. Sheykin, P.A. Rebinder, V.B. Ratinov, V.S. Ramachandran, B.R. Falikman, X. Teylor, M. Kollepardi, P. Aitcin, M. Schmidt, P. Richard, E. Guneyisi, G. Edward, M. Buil va boshqalar ulkan hissa qo‘shganlar.

O‘zbekiston Respublikasida turli yillarda ko‘p komponentli yuqori sifatli beton kompozitsiyalaridan foydalanish sohasida ilmiy tadqiqotlarni A.I. Adilxodjayev, A.A. To‘laganov, E.U. Qosimov, M.K. Tohirov, N.A. Samig‘ov, B.B. Hasanov, V.M. Soy, I.M. Maxamataliyev, S.S. Shaumarov, A.T. Ilyasov, N.R. Muxammadiyev va boshqa olimlar olib borganlar.

O‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘ta yuqori sifatli betonlarni loyihalash masalalari batafsil yoritilgan, ularning texnologik va fizik-mexanik xossalarining kimyoviy modifikatorlar va mineral mikroto‘ldirgichlarning sement toshiga ta’sir mexanizmi bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-yanvardagi “Suv havzalarida noruda materiallarni qazib olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoni.

Biroq, bir qator muhim jihatlar hali yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, chiqindi qo‘shimchalar qo‘llanilgan betonning mustahkamligini oshirishda asosiy o‘rin tutadigan sement toshi va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi kontakt zonaning tuzilishi, qalinligi va zichligiga, sement kompozitining g‘ovakli strukturasiga kam e’tibor berilgan. Shu munosabat bilan, metallurgiya chiqindilari - mis qazib olish chiqindi qumi va mikrokremnezemni mikroto‘ldirgich sifatida qo‘llab, o‘ta yuqori sifatli va uzoqqa chidamli beton kompozitsiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar o‘tkazish vazifalari alohida dolzarblik kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti hamda «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ o‘rtasida 2025-yil 15-yanvarda imzolangan K1053209-sonli ilmiy-tadqiqot ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi metallurgiya sanoati chiqindi qumi va mikrokremnezem birgalikda qo‘llanilgan holda klinker sarfi pasaytirilgan, mustahkamligi va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan beton tarkibini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat chiqindilari va faol mineral qo‘shimchalar qo‘llanilgan beton tarkiblari haqidagi zamonaviy qarashlarni mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar asosida tahlil qilish;

metallurgiya sanoati chiqindi qumi va mikrokremnezem birgalikda qo‘llanilgan betonning fizik-kimyoviy xossalari va granulometrik tarkibini tadqiq etish;

kompleks modifikatsiyalangan beton mikrostrukturasini zamonaviy usullar yordamida o‘rganish hamda strukturaviy o‘zgarishlarning beton xossalariga ta’sir qonuniyatlarini aniqlash;

beton tarkibini tajribalarni matematik rejalashtirish usuli asosida optimallashtirish va uni loyihalash jarayonini EHM dasturi yordamida avtomatlashtirish;

tadqiqot natijalarini texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash va ishlab chiqarishga joriy qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida metallurgiya sanoati chiqindi qumi va mikrokremnezem birgalikda qo‘llanilgan kompleks modifikatsiyalangan beton qorishmalari va betonlar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida superplastifikator, mikrokremnezem va mis qazib olish chiqindi qumi qo‘llanilgan holda tayyorlangan betonning mikrostrukturasi, fizik-mexanik, ekspluatatsion va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari qabul qilingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan (rentgenfazaviy tahlil, elektron mikroskopiya), beton qorishmasi va betonning sifat ko‘rsatkichlari va xossalarini o‘rganishning standartlashtirilgan usullaridan, tajribalarni matematik rejalashtirish va tarkibni optimallashtirish usullaridan hamda eksperiment natijalarini statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

metallurgiya sanoati chiqindi qumini qo‘shish beton strukturasi shakllanishining kimyoviy va granulometrik bosqichlarida “to‘ldiruvchi - sement toshi” kontakt zonasi devorlarini mustahkamlab, mikroyoriqlar hosil bo‘lishini kamaytirishi va betonning fizik-mexanik hamda ekspluatatsion xossalarining yaxshilanishi nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida isbotlangan;

mikrokremnezem chiqindisi yuqori putssolan faolligi hisobiga sement matritsasidagi portlandit $Ca(OH)_2$ kristallari bilan kimyoviy o‘zaro ta’sirlashib, qo‘shimcha past asosli kalsiy gidrosilikatlari (C-S-H geli) hosil qilishi va sement matritsasining zichlashuvini ta’minlashi rentgenfazaviy tahlil natijalari yordamida asoslab berilgan;

kompleks tarzda metallurgiya sanoati chiqindi qumi va mikrokremnezemni beton tarkibiga qo‘shish betondagi kapillyar g‘ovaklarni to‘ldirib, zich va bir jinsli mikrostruktura hosil bo‘lishini ta’minlashi eksperimental tadqiqotlar va mikrostruktura tahlillari bilan asoslangan;

sanoat chiqindilari miqdoriga bog‘liq holda kompleks modifikatsiyalangan betonning o‘rtacha zichligi va siqilishdagi mustahkamligini ifodalovchi ko‘p omilli matematik modellari va ular asosida betonning ratsional tarkibini loyihalash dasturi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oddiy portlandsement asosida metallurgiya sanoati chiqindi qumi va mikrokremnezemni birgalikda qo‘llash orqali sement sarfi kamaytirilgan, mustahkamligi, suv o‘tkazmasligi va sovuqbardoshliligi oshirilgan B20 sinfli kompleks modifikatsiyalangan beton qorishmalarining maqbul tarkiblarini olish usuli ishlab chiqilgan;

sanoat chiqindilari qo‘llanilgan beton tarkibini tanlash va loyihalash jarayonlarini avtomatlashtiruvchi kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan, ularning loyihalash jarayonlaridagi mehnat sarfini 1,5-2 barobarga kamaytirishi baholangan hamda ishlanmaning texnik-iqtisodiy samaradorligi asoslangan;

metallurgiya sanoati chiqindi qumi va mikrokremnezem asosidagi kompleks modifikatsiyalangan betonning sement sarfini kamaytirish bilan birga uning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini yaxshilashi aniqlangan va piyodalar yo‘laklari qoplamalarini qurishda joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari va fizik-mexanik sinovlar, eksperimentlarni matematik rejalashtirish vositalari va usullaridan foydalanilganligi, nazariy hisoblar va tajribalar qurilish me’yorlari va qoidalariga rioya qilgan holda bajarilganligi, eksperimental natijalarning kompyuter dasturi bo‘yicha hisob natijalariga mos kelishi, shuningdek, ishlab chiqarish sharoitida aprobatsiyadan o‘tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar sement tizimida polikarboksilat superplastifikatori, mikrokremnezem va mis qazib olish chiqindi qumi ishtirokida kompleks modifikatsiyalangan betonlarning struktura hosil qilish jarayoni haqidagi tasavvurlarni ma’lum darajada chuqurlashtiradi, bu esa betonning

struktura hosil qilish nazariyasi va amaliyotini, texnologiyasi va xossalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy sanoat chiqindilaridan olingan kompleks qo‘shimchalar asosida talab etilgan xossalar majmuasiga ega bo‘lgan kompleks modifikatsiyalangan betonlarni olish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Metallurgiya chiqindilari qo‘shilgan kompleks modifikatsiyalangan beton tarkibini ishlab chiqish bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari asosida:

metallurgiya sanoati chiqindi qumi va mikrokremnezem qo‘llanilgan B20 sinfli kompleks modifikatsiyalangan beton tarkibi “Temiryo‘linfratuzilma maxsus qurilish” MChJda piyodalar yo‘laklari qoplamasini qurishda joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2026-yil 24-martdagi 4/E414-son ma’lumotnomasi).Natijada, piyodalar yo‘laklari qoplamasi qurilishidan olingan iqtisodiy samara - 490,056 mln so‘mni tashkil qilgan;

sanoat chiqindilari qo‘llanilgan beton tarkibini loyihalashni avtomatlashtiruvchi kompyuter dasturi “Temiryo‘linfratuzilma maxsus qurilish” MChJda joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2026-yil 24-martdagi 4/E414-son ma’lumotnomasi). Natijada, beton tarkibini loyihalash jarayonlaridagi mehnat sarfini 1,5-2 barobarga, sement sarfini 10 % ga, tabiiy qum sarfini 16 % ga kamaytirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, SCOPUS bazasiga kiruvchi nashrlarda 1 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta va respublika jurnallarida 5 ta maqola nashr etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta ixtiro hamda 5 ta EHM dasturi uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning holati va tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida ko‘rib chiqilayotgan mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning tahliliy sharhi keltirilgan.

Adabiyot manbalarini tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, betonning konglomerat tuzilishga ega kompozitsion material sifatidagi xossalari sement matritsasi, to‘ldiruvchilar hamda ular orasidagi kontakt zonasining holati bilan belgilanadi. Beton strukturasida nuqsonlarning shakllanishiga xomashyo materiallarining sifati, beton tarkibini loyihalash va texnologik jarayonlarning bajarilish xususiyatlari ta’sir ko‘rsatadi.

Piyoda yo‘laklari uchun beton qoplamasi ekspluatatsiya jarayonida mexanik yuklanishlar, harorat va namlikning o‘zgarishi, muzlash-erish sikllari hamda kimyoviy agressiv muhit ta’siriga uchraydi. Ushbu omillarning kompleks ta’siri natijasida beton strukturasida mikroyoriqlar, yemirilish jarayonlari yuzaga kelib, betonning xizmat muddati qisqaradi (1-rasm).



a) b)

1-rasm. Mexanik ta’sirlar natijasida betonlarda hosil bo‘ladigan buzilishlar

Bir qator tadqiqotlar mikrokremnezemning beton strukturasini modifikatsiyalashdagi yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Jumladan, V.M. Malhotra mikrokremnezemni sement vazniga nisbatan 5-10 % miqdorda qo‘llash orqali betonning 28 kunlik mustahkamligini 25-30 % ga oshirish mumkinligini, P.K. Mehta esa putssolan reaksiyasi natijasida kapillyar g‘ovaklar miqdori 50 % ga kamayishini tadqiq etgan. Shuningdek, T. Helland mikrokremnezem qo‘llanilganda xlorid ionlarining o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti 5-10 martagacha pasayishini aniqlagan, V.G. Batrakov esa suv o‘tkazmaslik ko‘rsatkichini W12-W16 gacha oshirish mumkinligini, S.S. Kaprielov siqilishdagi mustahkamlikni 20-40 % ga oshirish imkoniyatlarini, L.I. Dvorkin esa sovuqbardoshlilikni F400-F600 gacha ko‘tarish qobiliyatini o‘rgangan.

Mis ishlab chiqarishdan hosil bo‘lgan chiqindilarni beton tarkibida qo‘llash bo‘yicha T. Chanyal va B.K. Jain tabiiy qumning 40 % ini mis chiqindisi bilan almashtirganda siqilishdagi mustahkamlik 12-15 % ga ortganini, R.R. Onuaguluchi suv o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti 25-30 % ga kamayganini aniqlagan. M. Thomas mikrokremnezemni (5-10 %) sanoat chiqindilari bilan kompleks qo‘llaganda betonning sulfatlarga chidamliligi 1,5-2 barobar ortishini isbotlagan. K.S. Al-Jabri mis shlakini to‘ldirgich sifatida qo‘llab, suv-sement nisbatini 0,40 dan 0,35 gacha tushirgan, M. Mavroulidou egilishdagi mustahkamlik 10-15 % ga oshishini qayd etgan. R. Abdullahi va A. Al-Mattar tadqiqotlarida qumni qisman almashtirish hisobiga beton mustahkamligini 15-30 % ga oshirgani, biroq to‘liq almashtirishda qorishmaning bog‘lanuvchanligi sezilarli kamaygani keltirilgan.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chiqindilar qo‘llanilgan betonda mustahkamlikni belgilovchi sement toshi va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi kontakt zonaning tuzilishi, qalinligi va zichligi, sement kompozitining g‘ovakli strukturasi hamda kimyoviy muhit ta’siriga qarshiligi yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa ushbu yo‘nalishda istiqboldagi tadqiqotlarning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Adabiy manbalarni tahlil qilish va tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, ishchi gipoteza shakllantirildi. “Sement - sanoat chiqindilari - polikarboksilat superplastifikatori - suv” tizimidagi fizik-kimyoviy o‘zaro ta’sirlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarga asoslanib, bir tomondan, mikrokremnezemni sement matritsasini zichlashtiruvchi faol putssolan qo‘shimcha sifatida, ikkinchi tomondan, mis qazib olish chiqindi qumini kontakt zona devorlarini mustahkamlovchi va mikroyoriqlarni kamaytiruvchi texnogen to‘ldiruvchi sifatida qo‘llab, sement sarfi kamaytirilgan, fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan kompleks modifikatsiyalangan beton tarkibini ishlab chiqish mumkinligi faraz qilinadi.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqot usullari va qo‘llanilgan materiallar tasnifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida beton tarkibini ishlab chiqish uchun ishlatilgan dastlabki xomashyo komponentlarining xususiyatlari keltirilgan, shuningdek, eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazishda qo‘llanilgan usullar, laboratoriya asboblari va uskunalari tavsiflangan.

Bog‘lovchi sifatida “Ohangaronsement” zavodining CEM I 32,5N markali portlandsementi (GOST 10178-85) qo‘llanildi. Uning qotish vaqtining boshlanishi 1 soat 10 daqiqa, tugashi 6 soat 20 daqiqa, 28 sutkalik siqilishdagi mustahkamligi 21,72 MPa ni tashkil etdi. Portlandsementning kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Portlandsementning kimyoviy tarkibi

Tarkibiy qism	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	Na_2O	K_2O	SO_3
%	24,15	7,64	5,65	59,10	1,17	0,23	0,22	0,42

Faol mineral qo‘shimcha sifatida “O‘zmetkombinat” AJ metallurgiya kombinatining po‘lat eritish ishlab chiqarishidan olinadigan mikrokremnezemi ishlatildi. Uning zarrachalari silliq yuzali va sharsimon shaklga ega bo‘lib, asosiy qismini amorf kremniy dioksidi tashkil etadi (2-jadval). Mikrokremnezem suvli suspenziyasining pH ko‘rsatkichi o‘rtacha 7,74 ni tashkil etadi.

2-jadval

Mikrokremnezemning kimyoviy tarkibi (MK-90)

Tarkibiy qism	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	Na_2O	K_2O	C	S
%	90,69	0,68	3,69	0,85	1,01	0,61	1,23	0,98	0,26

Yirik to‘ldiruvchi sifatida Piskent karyerining 5-20 mm fraksiyali chaqiq toshi qo‘llanildi; uning donador tarkibi GOST 8267-93 talablariga javob beradi. Mayda to‘ldiruvchi sifatida daryo qumi ishlatildi; to‘kma zichligi 1401 kg/m³, haqiqiy zichligi 2594 kg/m³, changsimon va gilsimon zarralar miqdori 0,5 %. Qumning granulometrik tarkibi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Qumning granulometrik tarkibi

Elakdagi qoldiq, %	2,5	1,25	0,63	0,315	0,16	<0,16	Yiriklik moduli
Xususiy	2,0	6,5	34,5	41,5	13,0	2,5	2,36
To‘liq	2,0	8,5	43,0	84,5	97,5	100	

Texnogen mayda to‘ldiruvchi sifatida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumi qo‘llanildi (4-jadval). Kombinat chiqindixonalarida yiliga 34,5 mln tonnaga yaqin chiqindi hosil bo‘lib, uning joriy zaxirasi 1 321,5 mln tonnani tashkil etadi (5-jadval). Chiqindi zarrachalari burchakli, notekis shaklga va g‘adir-budur, rivojlangan yuzaga ega.

4-jadval

“Olmaliq KMK” AJ mis qazib olish chiqindisining kimyoviy tarkibi, mas. %

SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO	MgO	S	Cu	Mo	SO_3	TiO_2	Re
31,42	3,63	31,29	1,43	0,96	1,14	0,5	0,1	1,4	0,2	0,00001

5-jadval

OKMK chiqindilarining hajmi va zaxirasi

Chiqindi saqlash joyi	Yillik hosil bo‘lishi, mln t/yil	Joriy zaxira, mln tonna
№1	6,7	546,2
№2	27,8	775,3
Jami	34,5	1 321,5

Kimyoviy qo‘shimcha tanlash uchun respublika bozorida keng qo‘llanilayotgan beshta superplastifikator Hagerman konusi bo‘yicha sement xamirining yoyilishi orqali taqqoslandi (suv-sement nisbati 0,27, qo‘shimcha miqdori sement massasining 0,8 %). Natijalar 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Turli superplastifikatorlar ta’sirida sement xamirining yoyilishi, mm

O‘lchash vaqti, daqiqa	Melflux 1641 F (Germaniya)	JK-02 (Xitoy)	POLIMIX (O‘zbekiston)	Plv (FM) (Rossiya)	JK-08 (Xitoy)
0	290	260	340	140	240
5	360	270	360	130	250
25	370	250	380	110	230

Eng yuqori va vaqt bo‘yicha barqaror yoyilish polikarboksilat efirlari asosidagi POLIMIX (ARMENT CONSTRUCTION CHEMICALS) superplastifikatorida qayd etildi. Mahalliy ishlab chiqarilishi va nisbatan arzonligi sababli u import o‘rnini bosuvchi mahsulot sifatida keyingi tadqiqotlar uchun tanlandi.


Beton va sement toshining xossalari amaldagi standartlar bo‘yicha aniqlandi: siqilishdagi mustahkamlik - GOST 10180-2012 (100×100×100 mm kub namunalar, yuklanish tezligi 0,6 MPa/s), zichlik - GOST 12730.1-2020, suv o‘tkazmaslik - GOST 12730.5-2018 («ho‘l dog‘» usuli), sovuqbardoshlilik - GOST 10060-2012, qorishma harakatchanligi - GOST 10181-2014. Mikrostruktura va fazaviy tarkibni

o‘rganishda JIB-4500 JEOL elektron mikroskopi (O‘zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti), XRD-7000 Shimadzu rentgen difraktometri, solishtirma sirtni aniqlash uchun PSX-11A qurilmasi va MicroSizer 201 lazerli granulometri qo‘llanildi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat transport universiteti hamda “Temiryo‘linfratuzilma maxsus qurilish” MChJ laboratoriyalarida bajarildi.

Dissertatsiya ishining **“Chiqindilar yordamida hosil qilingan kompleks modifikatsiyalangan beton strukturasi va xossalarini tadqiq etish”** deb nomlangan uchinchi bobi mikrokremnezem, polikarboksilat superplastifikatori va mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumining beton strukturasi hamda xossalarining shakllanishiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan eksperimental tadqiqotlar natijalariga bag‘ishlangan. Bunda beton tarkibini matematik rejalashtirish usuli asosida optimallashtirish, komponentlarning o‘zaro ta’sir qonuniyatlarini aniqlash hamda olingan betonlarning fizik-mexanik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini baholash natijalari keltirilgan.


Mikrokremnezem va portlandsementning kimyoviy tarkibi sezilarli farq qiladi: mikrokremnezem tarkibida SiO_2 ustun (92 %), portlandsementda esa asosiy oksidlar CaO (59,10 %) va SiO_2 (24,15 %) hisoblanadi. Mikrokremnezemda CaO juda kam (0,85 %), shuning uchun u sementning kimyoviy analogi emas, balki gidratatsiyada ajraladigan $Ca(OH)_2$ bilan reaksiyaga kirishuvchi faol amorf SiO_2 manbai sifatida sementning bir qismini almashtiradi.

Mikrokremnezem o‘lchami 0,05-0,5 mkm bo‘lgan sferik zarrachalardan iborat bo‘lib, portlandsement donalaridan taxminan 50 marta kichik; uning solishtirma yuzasi 15 000-30 000 m^2/kg ga yetadi. Mikrokremnezemning rentgen difraktogrammasida (2-rasm, a) aniq kristall piklar yo‘q, $2\theta \approx 15$-$30°$ oralig‘ida maksimumi taxminan 22° ga to‘g‘ri keladigan keng amorf SiO_2 galosi kuzatiladi; bu uning yuqori putssolan faolligini ko‘rsatadi. 28 sutkalik sement toshi difraktogrammalarida (2-rasm, b) nazorat namunasida portlandit $Ca(OH)_2$ (P), alit (A), belit (B), kalsit (Cc) va ettringit (E) piklari qayd etilgan. 10 % MK qo‘shilgan namunada portlandit va klinker minerallari piklarining intensivligi kamaygan, $2\theta \approx 25$-$35°$ oralig‘ida C-S-H fazasiga xos amorf ko‘tarilish kuchaygan.



2-rasm. Rentgen difraktogrammalari (Cu Kα): a) mikrokremnezem; b) 28 sutkalik sement toshi (nazorat va 10 % MK). P - portlandit $Ca(OH)_2$; A - alit C_3S; B - belit C_2S; Cc - kalsit $CaCO_3$; E - ettringit


Putssolan reaksiyasi natijasida qo‘shimcha past asosli kalsiy gidrosilikatlari (C-S-H) hosil bo‘ladi, nisbatan past mustahkamlik va yuqori eruvchanlikka ega portlandit miqdori kamayadi. Ultradispers mikrokremnezem zarrachalari sement donalari orasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib, mikroto‘ldiruvchi samarasini beradi: yirik kapillyar g‘ovaklar ulushi kamayadi, g‘ovakli tuzilma mayda gel g‘ovaklari tomon siljiydi, betonning eng zaif elementi hisoblangan “to‘ldiruvchi - sement toshi” o‘tish zonasi (ITZ) zichlashadi (3-rasm).



a) b)

3-rasm. Mikrokremnezem kiritilganda sement toshining zichlanish mexanizmi

Polikarboksilat superplastifikatori (PSP) sement zarrachalari yuzasiga adsorbsiyalanib, elektrostatik itarilish hisobiga sement va mikrokremnezem zarrachalarining aglomeratsiyalanishining oldini oladi, suv-sement nisbatini pasaytiradi va kapillyar g‘ovaklikni kamaytiradi. Suv-sement nisbatining pasayishi barcha tarkiblarda mustahkamlikni oshiradi; eng katta samaraga PSP va mikrokremnezem birgalikda qo‘llanilganda erishiladi (4-rasm). Bu sinergetik ta’sir suvga bo‘lgan ehtiyojning kamayishi, sement matritsasining zichlashishi va qo‘shimcha C-S-H hosil bo‘lishi bilan izohlanadi.



4-rasm. Modifikatsiyalovchi qo‘shimchalarning turli suv-sement nisbatlarida beton mustahkamligiga ta’siri


Mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumi zarrachalari tabiiy qumdan farqli ravishda burchakli shaklga va rivojlangan g‘adir-budur yuzaga ega bo‘lib, sement matritsasi bilan mexanik ilashishni kuchaytiradi. Mikrokremnezem bilan birgalikda qo‘llanilganda donalararo bo‘shliqlar kamayadi, o‘tish zonasi zichlashadi va beton makrostrukturasi bir jinsli bo‘ladi (5-rasm).



a) b)

5-rasm. Mis qazib olish chiqindi qumi va mikrokremnezemdan foydalangan holda beton makrostrukturasini shakllantirish sxemasi


Elektron mikroskopik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, qo‘shimchasiz etalon betonda kapillyar g‘ovaklar ko‘p, portlandit kristallari yirik va plastinkasimon, C-S-H geli miqdori kam, mikrostruktura nisbatan bo‘sh. 10 % mikrokremnezem qo‘shilgan betonda esa kapillyar g‘ovaklar sezilarli kamaygan, C-S-H geli ko‘p va tolasimon ko‘rinishda, portlandit miqdori putssolan reaksiya hisobiga kamaygan, mikrostruktura zichlashgan va bir jinsli (6-rasm).



a) b)

6-rasm. Beton mikrostrukturasi (×5000): a) etalon beton (MK qo‘shilmagan); b) 10 % mikrokremnezem qo‘shilgan beton

Mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumi qo‘shilgan betonda ham shunga o‘xshash o‘zgarishlar kuzatildi (7-rasm): etalon betonda yirik g‘ovaklar va portlandit kristallari, bo‘sh va noaniq ITZ zona aniqlangan bo‘lsa, 16 % mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumi qo‘shilgan betonda g‘ovaklar kam, C-S-H geli kompakt tuzilma hosil qilgan, chiqindi zarrachasi atrofidagi ITZ zona zich va aniq chegaraga ega.



a) b)

7-rasm. Beton mikrostrukturasi: a) etalon beton (OKMK chiqindisiz); b) 16 % mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumi qo‘shilgan beton

Beton tarkibi B3 rejasi asosida matematik rejalashtirish usulida optimallashtirildi. Omillar sifatida X_1 - PSP miqdori (sement massasidan), X_2 -

mikrokremnezem miqdori (sement massasidan) va X_3 - mis qazib olish chiqindi qumi miqdori (qum massasidan) qabul qilindi; optimallashtirish mezoni - normal sharoitda 28 sutka qotgan betonning siqilishdagi mustahkamligi. Reja D-optimal rejalarga yaqin bo‘lib, 15 ta kuzatuvni o‘z ichiga oladi (7-jadval).

7-jadval


Omillar va ularning o‘zgarish intervallari

Omillar	O‘lchov birligi	Kod	-1	0	+1
PSP (superplastifikator)	%	X_1	0,6	0,8	1,0
MK (mikrokremnezem)	%	X_2	5,0	10,0	15,0
Mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumi	%	X_3	10,0	16,0	22,0

Tajriba natijalari asosida B20 sinfli beton mustahkamligini tavsiflovchi matematik-regressiya tenglamasi olindi:

$$Y = 21,57 + 0,15x_1 + 0,10x_2 + 0,08x_3 + 0,10x_1x_2 + 0,05x_1x_3 + 0,05x_2x_3 - 0,35x_1^2 - 0,65x_2^2 - 0,55x_3^2$$

Ushbu matematik regressiya tenglamasida har uchala omilning beton mustahkamligiga ta’siri keltirilgan (8-rasm). Bunda matematik-regressiya tenglamasiga eng katta ta’sir etish omili sifatida – mikrokremnezem ($b_{22} = -0,65$) ni ko‘rish mumkin. Shundan so‘ng, mis qazib olishdan hosil bo‘lgan chiqindi qumining ta’siri ($b_{33} = -0,55$) kuzatiladi. Keyingi omil sifatida superplastifikator ($b_{11} = -0,35$) ni qayd etish mumkin (8-jadval).



a) b) c)

8-rasm. Beton mustahkamligining omillarga bog‘liqligi: a) PSP va MK-90; b) PSP va chiqindi qum; c) mikrokremnezem va chiqindi qum

8-jadval

Matematik-regressiya tenglamasi bo‘yicha beton mustahkamligi, MPa

a) MK, % \ PSP, %	0,6	0,8	1,0	b) Chiqindi qum, % \ PSP, %	0,6	0,8	1,0
5	20,41	20,82	20,52	10	20,48	20,94	20,70
10	21,07	21,3	21,38	16	21,06	21,32	21,38
15	20,42	21,03	20,93	22	20,55	21,11	20,97
c) Chiqindi qum, % \ MK, %	**5**	**10**	**15**				
10	20,22	20,94	20,37				
16	20,81	21,72	21,06				
22	20,30	21,13	20,65				

Matematik-regressiya tenglamasining maksimumi PSP ≈ 0,8 %, MK ≈ 10,5 % va mis chiqindi qumi ≈ 16,5 % miqdorida beton tarkibiga kiritilganda 21,72 MPa mustahkamlikni ta’minlaydi.


Eksperimental tadqiqotlarning birinchi bosqichida an’anaviy B20 sinfli beton tarkibi (sement - 320 kg, qum - 680 kg, shag‘al - 1200 kg, suv - 175 litr) o‘rganildi; uning 28 sutkalik mustahkamligi 18,8-19,1 MPa ni tashkil etdi. Keyin tarkibga PSP 0,6; 0,8 va 1,0 % miqdorda qo‘shilganda mustahkamlik mos ravishda 19,8; 20,3 va 20,1 MPa ga teng bo‘ldi; PSP ning maqbul miqdori 0,8 % deb qabul qilindi.

Ikkinchi bosqichda sementning 4-12 % i mikrokremnezem bilan almashtirildi (9-jadval, 9-rasm). Mikrokremnezem miqdori 4 % dan 10 % gacha oshirilganda 28 sutkalik mustahkamlik 19,3 MPa dan 20,8 MPa gacha ortib, eng maqbul natija 10 % tarkibda qayd etildi. Bunda mikrokremnezem miqdori 12 % ga oshirilganda mustahkamlikning sezilarli darajada ortmasligi ayrim hollarda esa kamayishi (20,7 MPa) qayd etildi.

9-jadval

Mikrokremnezem qo‘shilgan namunalarning 28 sutkalik siqilishdagi mustahkamligi

№	Mikrokrem-nezem miqdori	R_{28-1}, MPa	R_{28-2}, MPa	R_{28-3}, MPa	R_{28} o‘rt., MPa
1	4 %	19,23	19,35	19,47	19,3
2	6 %	19,46	19,58	19,70	19,6
3	8 %	19,80	19,90	19,97	20,0
4	10 %	20,70	20,80	20,92	20,8
5	12 %	20,68	20,69	20,70	20,7



a) b)

9-rasm. Beton mustahkamligining mikrokremnezem miqdoriga bog‘liqligi: a) diagramma; b) grafik


Eksperimental tadqiqotlarning uchinchi bosqichida mis qazib olish jarayonida hosil bo‘lgan chiqindi qumining beton tarkibiga qo‘shilgan miqdori qum massasiga nisbatan 10-18 % oralig‘ida qo‘llanildi (10-jadval, 10-rasm). Bunda miqdori 10 % dan 16 % gacha qo‘shilganda o‘rtacha mustahkamlik 19,0 MPa dan 20,4 MPa gacha ortdi. Bu holat chiqindi qumning mikroto‘ldiruvchi ta’siri natijasida sement toshining zichlashishi va kontakt zonaning yaxshilanishi bilan izohlanadi.

